

20-May, 2025-yil

**TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI DARSGA BO‘LGAN IJOBIY
MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

FarDU “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Zakirova Dilfuza Saydolimovna

TDPU, “Ingliz tili nazariyasi va o‘qitish metodikasi”

kafedrasi o‘qituvchisi

Nishonova Sayyora Saidovna

*“Agar menden nima qiynaydi?” deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim-tarbiyasi
deb javob beraman.*

SH. Mirziyoev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoev Yangi O‘zbekistonning bugungi asosiy g‘oyasi nimadan iborat ekaniga e’tibor qaratib, bobolarning armonlarini amalga oshirish barchamiz uchun ham qarz, ham farz ekanini ta’kidlaydi: “Agar buyuk bobolarimizning ruhini shod qilib, jadid bobolarimiz qilgan ishlarning davomchilari bo‘lib, bugungi g‘oyamizni — Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanadi, degan ulug‘ harakatni amalga oshirishda belimizni mahkam bog‘lab harakat qilsak, albatta, natija bo‘ladi”.

Umumta’lim maktablari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning dars intizomi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolari doimoy ravishda paydo bo‘ladi. Intizom borasida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida munosabatlarni “ko‘chadagi qarama –qarshi harakatga” qiyoslash mumkin, chunki o‘quvchining o‘qituvchiga munosabati konfliktli va muammoli xulq va atvor shaklida namoyon bo‘ladi. Intizomga rioya qilmaydiganlarga nisbatan konstruktiv ta’sir samarali bo‘lishi uchun bu xatti-xarakatning asl motivlari nimadan iborat ekanligini aniqlash va shundan kelib chiqqan holda muammoning echimini topish usullarini tanlash lozim. Bunday yondashuv o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro hurmatni shakllantiradi. Odatda, intizomni buzgan o‘quvchi o‘zining xatti-xarakati noto‘g‘ri ekanlogini tushunadi, lekin bunday xulq-atvorning motivini tushunib etmaydi. Har bir bola uchun bu xatti-xarakatning turli sabab va maqsadlari mavjud. Pedagoglar bu motivlarning qanday bo‘ishiga qaramay ularga samarali ta’sir etish usullarini tanlashlari lozim.

Agar pedagoglar intizom buzilishining maqsadlarini aniqlashga qodir bo‘lsalar, u holda o‘quvchi bilan konstruktiv munosabatlarni o‘rnata oladilar, unumsiz muloqot samarali muloqotga aylanib boradi. Bu harakatlarda to‘g‘ri strategiyani tanlash bosqichma-bosqich muammoni echimini topish imkonini beradi.

Tarbiya – shaxs oqimini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlanirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy va iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta’sirlar majmuidir. Tarbiya metodi deb –tarbiyachi, murabbiylarning tarbiyalanuvchilarda onglilik, iyomon, e’toqod va insoniy hulq-atvor qoida meyorlarini shakllantirish maqsadida ularga pedagogik va

20-May, 2025-yil

psixologik ta’sir ko‘rsatish usuliga aytildi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bola xarakteridagi salbiy nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha olimlar tomonidan taklif etilgan yagona nazariya yoq. Bu o‘zaro bahslarga sabab bo‘luvchi o‘ta dolzarb muammoni ijobiy hal etishda ko‘proq amaliy tajribalarga asoslangan ma’qul.

Bolalar xarakteridagi salbiy nuqsonlarni bartaraf etish uchun quyidagi jarayonlarda pedagogik tasir vositalarni qo‘llash maqsadga muvofiqligi olimlar tomonidan taklif etilgan: o‘quv jarayonida; maktabdan va sinfdan tashqari jarayonlarda; oilaviy sharoitda; bolalar va yoshlar tashkilotlari faoliyatlari orqali; madaniyat va san’at, ommaviy axborot vositalari orqali.

Pedagogik jarayonlarning barqaror bo‘ishi va shaxsga ijobiy ta’sir etishi uchun quyidagi guruxlarga oid metodlardan foydalanish tavsuya etiladi: 1) ishontirish; 2) shaxsiy namuna; 3) o‘rgatuvchi mashqlar; 4) rag‘batlantirish va jazolash; 5) nazorat va baholash.

Psixologok tadqiqotlardan ma’lumki, axloq tushunchalarni o‘zlashtirish juda murakkab jarayon bo‘lib, unu maxsus boshqarish orqali amalga oshirish mumkin. Ayrim avtoritar o‘qituvchilar o‘quvchilarga nisbatan o‘ta qo‘polikka,adolatsizlikka yol qo‘yib, o‘quvchilarni o‘zlaridan bezdiradilar. Natijada, o‘qituvchi bu o‘qituvchining nafaqat o‘zidan, balki dars berayotgan fanidan ham ko‘ngli soviydi. Uning ko‘nglida o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizlik, hattoki qahr-g‘azab ham paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar o‘quvchilarning shaxsini va ularning fikr-mulohazalarini hurmat qilgan holda harakat qilishlari lozim. Ma’qullah va qoralash, rag‘batlantirish hamda jazolash o‘quvchining intizomini tuzatishning samarali vositasi bo‘lishi uchun u o‘z vaqtida va adolatli tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchining qiziqishi va hissiyotlarini o‘rganish, ta’sir ko‘rsatish jarayonida ularni hisobga olish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda dars intizomiga ijobiy munosabatni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘llardan foydalanish mumkin:

1. O‘qituvchining shaxsiy namunasi: O‘qituvchining o‘zi darsga intizomli va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘z vaqtida darsga kirishi, darsni tartibli olib borishi va o‘quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak.

2. Darsning qiziqarli va mazmunli bo‘lishi: Dars mavzusini o‘quvchilar uchun qiziqarli va dolzarb qilib taqdim etish kerak. Darsda interaktiv usullardan, o‘yinlardan va boshqa qiziqarli mashg‘ulotlardan foydalanish kerak. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish kerak.

3. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir o‘quvchining qobiliyatları, qiziqishlari va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. O‘quvchilarga individual yondashuv orqali ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va darsga qiziqishini uyg‘otish kerak.

4. Sinfda ijobiy muhit yaratish: Sinfda do‘stona va hamkorlik muhitini yaratish kerak. O‘quvchilarni bir-birini hurmat qilishga va qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatish kerak. O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag‘batlantirish va ularni darsda faol ishtiroy etishga undash kerak.

20-May, 2025-yil

5. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish: Ota-onalarni o‘quvchilarning darsdagi intizomi va muvaffaqiyatlari haqida xabardor qilib turish kerak. Ota-onalar bilan birgalikda o‘quvchilarning dars intizomini yaxshilash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish kerak.

6. Intizom qoidalarini aniq belgilash va ularga rioya qilish: Sinfda intizom qoidalarini aniq belgilash va ularni barcha o‘quvchilar uchun bir xil qo‘llash kerak. Intizom qoidalarini buzgan o‘quvchilarga nisbatan adolatli va o‘z vaqtida choralar ko‘rish kerak.

7. O‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatish: O‘quvchilarga o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish va o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni o‘rgatish kerak. O‘quvchilarga o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish usullarini o‘rgatish kerak.

8. O‘quvchilarni rag‘batlantirish: O‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini rag‘batlantirish va ularni darsda faol ishtirok etishga undash kerak. Rag‘batlantirish sifatida maqtov, mukofot yoki boshqa ijobiy ta’sir ko‘rsatish usullaridan foydalanish mumkin.

9. O‘quvchilarga mas’uliyat hissini singdirish: O‘quvchilarga o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rgatish kerak. O‘quvchilarga o‘z vazifalarini bajarish va o‘z vaqtida topshiriqlarini topshirishni o‘rgatish kerak.

10. O‘quvchilarga dars intizomining ahamiyatini tushuntirish: O‘quvchilarga dars intizomi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish kerak.

Yuqorida keltirilgan turli metodlar va usullar o‘quvchi shaxsini, uning imkoniyatlari va shaxsiy rejali, ijtimoiy sharotlari hamda eng muhim, intizomsizlik motivlarini o‘rganib taxlil qilingandagina kutilgan samara va natijani berishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ганиева, Х.А., Закирова, Д.С. (2022)Ўсмирларда характер акцентуацииси. Новости образования: исследование в XXI веке.1(4)548-553.-
2. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)
3. Ота-оналар билан ҳамкорликда толерантлик масалалари. Молодой учёный» • № 15 (357) • Апрель 2021